

# COLLECTION

Innovation, integration and modern  
problems in the scientific activities of young  
researchers and students: theory and  
practice

www.d-pressa.com

31  
MARCH



Jizzakh, Uzbekistan

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF  
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JIZZAKH BRANCH OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN  
NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

SCIENTIFIC JOURNAL OF SCIENCE TECHNOLOGY & DIGITAL FINANCE  
JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENCE NETWORKS

Innovation, integration and modern problems in the scientific activities of young  
researchers and students: theory and practice collection of materials of the  
international scientific and practical conference on the topic

(March 31, 2026)

Jizzakh-2026

**Innovation, integration and modern problems in the scientific activities of young researchers and students: theory and practice** – Jizzakh: Department of economics and tourism of Jizzakh branch of the national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, March 31, 2026, 790 pp.

**Editors in charge:** Ass.prof. Soy M.P.

In the collection of materials of the conference, the role and role of Science, Education and production in the era of globalization, the pressing problems of the issues of interaction of these processes, feedback on their solutions were presented by mature specialists of the field.

In addition, research on the scientific and practical topic, carried out in the economics, Exact Sciences, Natural Sciences and socio-humanities during the globalization period, information is presented in the scientific and practical fields, which includes the latest innovative technologies in the fields of production.

It can be argued that this collection is one of the specific intersections of current thoughts and innovative ideas of the world of science. This scientific and practical conference was actively attended by professors and scientific researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries. In increasing the position of the scientific and practical conference, the professors and teachers of domestic and foreign higher educational institutions made a significant contribution.

Professors and teachers of foreign higher educational institutions who actively participated in the work of the conference made a worthy contribution to the high level of interaction with scientists of our country. The processes of international cooperation with foreign countries and exchange with them in the field of Science in the era of globalization have a positive effect on the development of Higher Education, the fields of Science and production. The materials of this conference are special in that they include a wide range of research, from theoretical developments to practical solutions, demonstrating the diversity of approaches and directions in this area.

In conclusion, it should be noted that this scientific and practical conference will be a very useful collection for everyone who is interested in modern research in the fields of further development of Higher Education, Science, Education and production in the era of globalization. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

## OILANING MADANIY, TARIXIY VA ETNIK XUSUSIYATLARI

**Yuldasheva Sojida Zoyirovna**

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali  
“Psixologiya” kafedrasida assistenti*

**Husanova Feruza Halilovna, Adirbayeva Shoxista Xolmuminovna,  
Abdusalamova Dilnora Shuxratovna**

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali “Amaliy  
psixologiya” yo‘nalishi talabalari*

---

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada oilaning madaniy, tarixiy va etnik xususiyatlari hamda ularning shaxs rivojlanishi va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Oila institutining turli davrlar davomida shakllanishi, milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an‘analar asosida rivojlanib borishi yoritiladi. Shuningdek, turli etnik guruhlar kesimida oilaviy munosabatlarning o‘ziga xos jihatlari, ijtimoiylashuv jarayonidagi roli hamda zamonaviy globalizatsiya sharoitida yuz berayotgan o‘zgarishlar tahlil etiladi. Maqolada oilaning madaniy merosni avlodlardan avlodga yetkazishdagi ahamiyati ham alohida ta’kidlanadi.

**Kalit so‘zlar:** Oila, madaniyat, tarixiy rivojlanish, etnik xususiyatlar, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an‘analar, ijtimoiylashuv, oilaviy munosabatlar, globalizatsiya, shaxs rivoji, ijtimoiy institut.

*“Oila - er-xotinlik ittifoqiga, qarindoshlik aloqalariga, umumiy xo‘jalik yuritadigan er va xotin, ota-ona va bolalar, aka-uka va opa-singillar va boshqa qarindoshlar o‘rtasidagi munosabatlarga asoslanadigan kichik ijtimoiy guruh, jamiyatning asosi, davlat qudratining manbai”*

### ***Falsafa qomusiy lug‘atidan[1]***

Oila jamiyatning eng qadimiy va eng barqaror ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, uning shakllanishi va rivoji bevosita madaniy, tarixiy hamda etnik omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. Oila nafaqat biologik avlod davomiyligini ta’minlovchi tuzilma, balki ijtimoiy tajriba, qadriyatlar, urf-odatlar, axloqiy me’yorlar va madaniy merosni avlodlardan avlodga uzatuvchi asosiy muhit hisoblanadi. Shu bois oilaning madaniy, tarixiy va etnik xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish ijtimoiy fanlar, xususan, psixologiya, sotsiologiya va antropologiya uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan oila jamiyatning madaniy xotirasi, tarixiy tajribasi va etnik o‘ziga xosligini saqlovchi hamda uzatuvchi asosiy ijtimoiy mexanizm hisoblanadi.

Mashhur sotsiolog E.Dyurkgeym oilani jamiyatning “axloqiy yadrosi” sifatida ta’riflab, unda jamiyatning asosiy qadriyatlari mujassam bo‘lishini ta’kidlagan.

Oilaning shakllanishi va evolyutsiyasi jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlangan. L.Morganning tarixiy-materialistik yondashuviga ko‘ra, oila shakllari

ishlab chiqarish munosabatlari va iqtisodiy tizimlarning o'zgarishi natijasida evolyutsion bosqichlarni bosib o'tgan.

**Tarixiy jihatdan oila:**

- *Patriarxal oila (ota hukmronligi),*
- *Matriarxal oila (ona markaziy rolga ega),*
- *Kengaytirilgan oila (bir necha avlod vakillari) kabi shakllarda namoyon bo'lgan,*
- *Nuklear oila (er-xotin va farzandlar).*

Sharq jamiyatlari, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari oilasining tarixiy rivojida kengaytirilgan oila modeli ustun bo'lib kelgani kuzatiladi. Bu modelda avlodlar davomiyligi, katta yoshdagilarga hurmat va qarindoshlik rishtalarining mustahkamligi asosiy qadriyat sifatida namoyon bo'lgan. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, aynan shu omillar jamiyat barqarorligini ta'minlovchi muhim ijtimoiy resurs bo'lib xizmat qilgan.

Tarixchi olim A.Toynbi oilani sivilizatsiyaning uzluksizligini ta'minlovchi mexanizm sifatida baholagan. L.Morgan, A.Toynbilarning tarixiy yondashuv asosida olib borilgan tadqiqotlari oilaning jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda o'zgarib borganini tasdiqlaydi. Ibtidoiy jamiyatda jamoaviy nikoh shakllaridan boshlab, patriarxal va matriarxal oilalar, keyinchalik esa monogam oila shakliga o'tish jarayoni tarixiy-iqtisodiy sharoitlar bilan belgilangani ilmiy asoslangan.

Antropologik yondashuvda oila jamiyatning qarindoshlik va nikoh tizimiga asoslangan strukturasiining markaziy elementi sifatida talqin qilinadi. Bu borada Klod Levi-Stross qarashlari muhimdir. U oilani madaniy tizimning bir qismi deb hisoblab, nikoh va qarindoshlik aloqalari orqali jamiyatda ijtimoiy tartib va hamkorlik shakllanishini ta'kidlaydi. Zamonaviy davrda oilaning shakllari xilma-xillashib borayotgan bo'lsa-da, uning asosiy vazifasi — avlodlar davomiyligini ta'minlash, ijtimoiy me'yorlarni uzatish va shaxsni jamiyatga integratsiya qilish — o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Faqat bu jarayonlar an'anaviy qat'iy qoidalarga emas, balki moslashuvchan va madaniyatlararo ta'sirlarga ochiq shaklda amalga oshmoqda.

Madaniyat oilaviy munosabatlar tizimini belgilovchi asosiy omillardan biridir. K.Levi-Stross oilani madaniyat va biologiya tutashgan nuqta sifatida izohlaydi. Uning fikricha, nikoh va qarindoshlik tizimlari har bir jamiyatda madaniy me'yorlar asosida shakllanadi.[2]

Xo'sh, oila tarixiy jarayonda qanday vujudga kelgan? Bu haqda olimlarning turli qarashlari mavjud. Shu narsa ayonki, kishilik taraqqiyotining ilk bosqichlarida oila tushunchasi paydo bo'lmagan, ibtidoiy jamiyatda oila tushunchasi shakllanmagan, erkak va ayol o'rtasidagi juftlashuv tasodifiy va ehtiyojni qondirishga yo'naltirilgan bo'lgan, va nasl qoldirish maqsadi hali asosiy omil sifatida mavjud bo'lmagan, lekin jinsiy ehtiyoj tufayli erkak va ayol juftlashuvi mavjud edi. Dastlab, bu juftlashuv tanlov asosida emasdi. Hatto nasl qoldirish maqsadi ham ko'zlanmas, shunchaki tasodifiy ehtiyojni qondirishga yo'naltirilgan edi. Bora-bora endogamiya va ekzogamiya munosabatlari qaror topa boshladi.

Dastlab endogamiya oila tipi yuzaga keldi. **Endogamiya** (yunoncha “endon”– ichki, “gamos”– nikoh) — nikohning muayyan ijtimoiy guruh doirasida tuzilishini anglatadi. Ya’ni shaxs faqat o‘z urug‘i, qabilasi, kasta, diniy yoki etnik guruhi ichidan juft tanlaydi. Endogamiya jamiyatda ijtimoiy, madaniy va diniy yaxlitlikni saqlash vositasi sifatida shakllangan. Bu tizim orqali qadriyatlar, urf-odatlar va mulkiy munosabatlar bir guruh doirasida uzluksiz davom etadi. E.Durkheim endogamiyani ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi mexanizm sifatida izohlaydi. G.Murdock endogam nikohlarni an’anaviy jamiyatlarda keng tarqalgan ijtimoiy me’yor sifatida qayd etadi. Buday oila tipi madaniy barqarorlikni taminlasada ijtimoiy yopiq tizim, genetik xavf ehtimoli katta bo‘ladi.

Keyinchalik ekzogamiya oila tipi shakillandi. **Ekzogamiya** (yunoncha “exo” – tashqi, “gamos” – nikoh) — nikohning o‘z guruhidan tashqarida tuzilishini bildiradi. Ya’ni shaxs boshqa urug‘, qabila yoki ijtimoiy guruh vakili bilan oila quradi. Ekzogamiya jamiyatda ijtimoiy aloqalarni kengaytirish, guruhlar o‘rtasida hamkorlik va integratsiyani kuchaytirish vazifasini bajaradi. Ko‘plab antropologlar ekzogamiyani jamiyat taraqqiyotining muhim omili deb hisoblaydilar. Claude Levi-Strauss ekzogamiyani jamiyatlararo almashinuv va madaniy rivojlanishning asosi sifatida talqin qiladi. Buday oila tipi ijtimoiy integratsiya, genetik xilma-xillikni taminlasada madaniy moslashuv qiyinchiliklari katta bo‘ladi.

#### **Madaniy jihatdan oila:**

- *nikoh marosimlari,*
- *gender rollari,*
- *ota-ona va farzand munosabatlari,*
- *tarbiya ushblari,*
- *oilaviy qadriyatlar orqali namoyon bo‘ladi.*

E.Dyurkgeym, K.Levi-Stross, G.Hofstedelarning madaniy yondashuv doirasida olib borilgan tadqiqotlari oilani madaniyatni ishlab chiqaruvchi va qayta ishlab beruvchi ijtimoiy makon sifatida talqin etadi. Dyurkgeym oilani jamiyatning axloqiy me’yorlari shakllanadigan muhit deb hisoblab, unda kollektiv ongning asosiy elementlari mujassamligini ta’kidlaydi. Levi-Stross esa qarindoshlik va nikoh tizimlarini madaniyatning ramziy tuzilmalari sifatida baholab, oilaning biologik emas, madaniy mohiyatini asoslab beradi.

Madaniyatlararo yondashuv oilaning rivojlanishi milliy qadriyatlar, mentalitet va ijtimoiy normalarga chambarchas bog‘liq deb hisoblaydi. Bu jihatni Gert Hofstede o‘z tadqiqotlarida keng yoritgan. U turli jamiyatlarni individualistik va kollektivistik madaniyatlar sifatida ajratib, oilaviy munosabatlar ham aynan shu madaniy yo‘nalishlarga muvofiq shakllanishini ko‘rsatadi. Individualistik jamiyatlarda ko‘proq G‘arb mamlakatlarida shaxsiy mustaqillik va o‘zini namoyon qilish birlamchi ahamiyat kasb etadi. Bunda kichik, mustaqil oila modeli ustun bo‘lib, unda shaxsiy erkinlik, o‘zini namoyon qilish va individual mas’uliyat muhim sanaladi. Kollektivistik jamiyatlarda ko‘proq Sharq mamlakatlarida oila- shaxs manfaatlaridan ustun qo‘yiladi, oila jamoaviy mas’uliyat va o‘zaro bog‘liqlik asosida qurilishi, katta oila, qarindoshlik rishtalarining mustahkamligi, o‘zaro yordam va an’anaviy qadriyatlar ustun turadi. Ushbu farqlar oiladagi rollar

taqsimoti, tarbiya uslublari va avlodlararo munosabatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Zamonaviy globallashuv jarayonida bu ikki model o‘zaro ta’sirlashib, yangi aralash oilaviy shakllar paydo bo‘lmoqda.

**O‘zbek oilalarida madaniy xususiyatlar quyidagilarda yaqqol ko‘zga tashlanadi:**

- *kattalarga hurmat,*
- *nikohning muqaddas sanalishi,*
- *oila sha’nini saqlash,*
- *qarindosh-urug‘chilik munosabatlarining kuchliligi.*

Psixolog D.Jujelo‘g‘lu oiladagi madaniy muloqot uslubi shaxsning o‘zini anglashi va emotsional barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi.

Etnik xususiyatlar oilaning ijtimoiylashuv jarayonidagi rolini belgilovchi muhim omildir. Etnopsixolog olim G.Triandis etnik guruhlar o‘rtasidagi oilaviy munosabatlar farqini ularning tarixiy tajribasi va mentaliteti bilan izohlaydi.

Etnik yondashuv oilaning shaxs ijtimoiylashuvidagi rolini chuqurroq anglash imkonini beradi. G.Triandis, M.Midlarning etnopsixologik tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, har bir etnos oilaga oid o‘ziga xos urf-odatlar, marosimlar va tarbiya modellari orqali shaxsning dunyoqarashi va xulq-atvorini shakllantiradi. Etnik xususiyatlar oilada gender rollari, ota-onaning nufuzi, bolaga qo‘yiladigan talablar va emotsional munosabatlar orqali namoyon bo‘ladi.

Sh.Yo‘ldoshev, R.Sunnatova va boshqa olimlarning o‘zbek oilasi misolida olib borilgan tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, milliy oilaviy modelda axloqiy tarbiya, hurmat, sabr-toqat va jamoaviy mas’uliyat yetakchi o‘rin tutadi. Ota-onaning psixologik ko‘rsatmalari, ayniqsa, bolaning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu holat oilaning etnik-madaniy funksiyasi nafaqat an’analarni saqlash, balki shaxsni jamiyatga moslashtirishda ham muhim ekanini tasdiqlaydi.

Har bir etnos oila o‘ziga xos urf-odatlar, marosimlar, an’anaviy rollar, tarbiya modellariga ega. Masalan, turkiy xalqlar oilasida jamoaviylik, sadoqat va sabr-bardosh qadriyatlari yetakchi o‘rin tutadi. O‘zbek oilalarida etnik xususiyatlar “Ota so‘zi – hukm”, “Ona – tarbiya markazi” kabi qarashlarda ifodalanadi. O‘zbek olimi Sh.Yo‘ldoshev tadqiqotlarida o‘zbek oilalarida ota-onalarning axloqiy-psixologik ko‘rsatmalari bola shaxsining asosiy yo‘naltiruvchisi ekanini ilmiy asoslab bergan.

U.Bek va E.Giddens zamonaviy oilani “refleksiv loyiha” sifatida talqin qilib, zamonaviy oila an’anaviy rollardan refleksiv munosabatlar tizimiga o‘tmoqda, unda an’anaviy rollar qayta ko‘rib chiqilayotganini ta’kidlaydi.[4] Biroq, ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bu jarayon milliy va etnik qadriyatlarning to‘liq yo‘qolishiga emas, balki ularning yangi ijtimoiy sharoitga moslashuviga olib kelmoqda.

Biroq, ko‘plab xalqlarda, xususan, O‘zbekistonda milliy, madaniy va etnik oilaviy qadriyatlarni saqlab qolish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev oilani jamiyat barqarorligi va ma’naviy taraqqiyotning tayanchi sifatida baholab, milliy oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash zarurligini alohida ta’kidlaydi. Bu yondashuv ilmiy nuqtai nazardan ham oilaning strategik ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, olib borilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, oila madaniy, tarixiy va etnik omillarning uzviy birligida shakllanadigan murakkab ijtimoiy-psixologik tizimdir. Oila orqali jamiyatning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari va etnik o'ziga xosligi saqlanadi hamda avloddan-avlodga uzatiladi. Shu sababli oilani o'rganishda uni faqat ijtimoiy institut sifatida emas, balki madaniy-tarixiy va etnopsixologik fenomen sifatida kompleks yondashuv asosida tahlil qilish ilmiy jihatdan muhim va dolzarb hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Falsafa qomusiy lug'ati / Mas'ul muharrir: Q. Nazarov. – Toshkent: Sharq, 2004. – 496 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim vazirligi G'.B.Shoumarov,I.O.Haydarov,N.A.Sog'inov "Oila psixologiyasi" "Sharq nashriyoti" Toshkent – 2015
3. G.Qarshiboyeva, U.Ibaydullayeva Oila psixologiyasi. Toshkent "Bayoz" 2022 B.137
- a. "Oilaviy munosabatlar psixologiyasi" S.Yuldasheva. Toshkent. "Zebo print" nashriyoti 2025yil
4. Арифханова З.Х. Духовная жизнь узбекской городской семьи: традиционные формы // Современные этнокультурные процессы в махаллях Ташкента. – Ташкент, 2005. – С. 123 – 169.
5. Цой М., Иброхимов Ш. СОВРЕМЕННАЯ СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 24-28.
6. Цой М. П., Худояров Р. Т. Рашидов АР ПРОДВИЖЕНИЕ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ //Компьютер ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami– Jizzax: O'zMU Jizzax filiali. – 2022.
7. Цой М. П., Ибрагимов З. Т. ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 339-342.
8. Kamolov D. ETHICS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE: EXPLORING THE MORAL AND SOCIAL IMPLICATIONS OF AI IN CONTEMPORARY SOCIETY //SGS-Engineering & Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 02.
9. Kamolov D. R. O. G. L. O'zbekistonda demokratiya va axloqning zamonaviy muammolari va yechimlari //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. NUU Conference 2. – С. 348-352.
10. Kamolov D. GLOBALIZATION PHENOMENON AND GLOBALISM //Journal of Contemporary World Studies. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 4-9.
11. Kamolov D., Ismoilova D. RAQAMLASHTIRISHNING O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI //Science technology&Digital finance. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 301-306.
12. Dostonbek K. SPIRITUAL AND MORAL ENVIRONMENT OF SOCIETY //Social science and innovation. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 128-133.